

SHAXMAT O'YINIDA TALABALARNING ANALITIK FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Oripova Nigoraxon Maxsutali qizi

Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqola shaxmat o'yinida talabalarning analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslarini asoslab berish maqsadida hamda bugungi kunda dunyo ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – talabalarni mustaqil va analitik fikrlashga o'rgatish, axborot texnologiyalari rivojlanishi, globallashuv va murakkab muammolarni hal qilish zarurati talabalar uchun nafaqat fanga oid bilimlarni egallashni, balki ularni tahlil qilishi to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: Analitika, natija, kuzatuv, aql-zakovat, mantiqiy, nazorat, akmeologiya, psixologiya, refleksiv yondashuv, intellektual, salohiyat.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ШАХМАТАХ

Аннотация: В данной статье обоснованы теоретические основы развития аналитических способностей студентов в шахматной игре. Также рассматривается одна из основных задач современной мировой системы образования – обучение студентов самостоятельному и аналитическому мышлению. Приводится информация о том, что развитие информационных технологий, глобализация и необходимость решения сложных проблем требуют от студентов не только овладения научными знаниями, но и умения их анализировать.

Ключевые слова: Аналитика, результат, наблюдение, ум, логика, контроль, акмеология, психология, рефлексивный подход, интеллектуальный, потенциал.

THEORETICAL BASIS OF DEVELOPING STUDENTS' ANALYTICAL THINKING SKILLS IN CHESS

Annotation: This article substantiates the theoretical foundations for developing students' analytical thinking abilities through the game of chess. It also addresses one of the main tasks facing today's global education system — teaching students to think independently and analytically. The article provides information about how the development of information technologies, globalization, and the necessity to solve complex problems require students not only to acquire scientific knowledge but also to analyze it.

Key words: Analytics, result, observation, intellect, logical, control, akmeology, psychology, reflexive approach, intellectual, potential.

KIRISH

Mamalakatimizda hozirgi kunda ta'limga bo'lgan talab kundan, kunga o'sib bormoqda. Ta'lim jamiyat qurilishining muhim muammolarni hal qilishda katta ro'l

o'ynaydi. Ta'limning asosiy omilli yoshlarning bilish, o'rganish qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasining 1997-yili 29-avgustda qabul qilingan Ta'lim to'g'risidagi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim tizimning barcha yo'nalishlarini takomillashtirish va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi. Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Inson dunyoga kelar ekan, tug'ilishdan boshlab, to o'lingacha turli holatlarga tushadi [1]. Shu vaziyatlarda inson to'g'ri fikrlash orqali muommolardan chiqib ketishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimizda shaxmat sport turiga bo'lgan e'tibor kundan kunga ortib bormoqda. Akmeologiya, analitika hamda shaxmatni rivojlantirish masalalari yuzasidan M.Muhitdinov, M.Pirimqulov, J.Polgar, P.Truong, L.Gorvits Sh. Jo'rayev. M. Xaylaev. Z.Bjenskiy hamda Oliy ta'limda innovatsion texnologiyalar va tanqidiy fikrlashni shakllantirish usullari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan va bunda shaxmatning ta'limiy ahamiyatini alohida ta'kidlagan, R.Shomurodov – O'zbekistonda shaxmatning ta'limdagi o'rni va uning analitik fikrlashni rivojlantirishdagi ta'siri bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Tadqiqot vazifalari

1. Analitik fikrlash, akmeologik yondashuv va shaxmatning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish.
2. Talabalarning analitik fikrlash qobiliyatlari va shaxmatning ta'limiy jarayondagi qo'llanilish darajasini baholash.

Hozirgi kunda talabarning fikrlash qobiliyatlarini yanda yuksaltirish maqsadida bir qancha sport turlaridan foydalanishmoqda. Shu jumladan shaxmat sport turidan ham. Har qanday mamlakatning ertangi kuni, kelajak taraqqiyoti birinchi galda o'z xalqining, yoshlarining jismoniy va ma'naviy kamoloti bilan o'lchanadi. Hozirda davlatlar o'rtasida o'zaro musobaqa, kuch-qudrat namoyon etish bellashuvi, asosan ikki yo'nalishda – sport va jismoniy tarbiya hamda aql-zakovat ya'ni intellektual faoliyat sohasida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonda an'anaviy usullar bilan bir qatorda innovatsion yondashuvlar - jumladan,

akmeologik yondashuv va analitik fikrlash keng qo'llanilmoqda. Shu jumladan jismoniy tarbiya va sport sohasida ham keng foydalanilmoqda.

Analitika - bu ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va ularni ma'noli natijalarga aylantirish jarayoni. U yordamida ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilinadi, muammolar yechiladi va kelajak uchun strategiyalar ishlab chiqiladi. Analitikaning asosiy jihatlari ma'lumotlarni yig'ish, Har xil manbalardan (statistikalar, kuzatuvlar, o'lchovlar) kerakli ma'lumotlar to'planadi. Tahlil qilish, ma'lumotlar o'rganiladi, ularning o'zaro bog'liqligi va tendensiyalari aniqlanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlil natijalari asosida xulosalar chiqariladi, masalan, muammo sabablarini aniqlash yoki yangi imkoniyatlarni ko'rish. Qaror qabul qilish: Olingan natijalar biznes, ta'lim, sport yoki boshqa sohalarda samarali qarorlar qabul qilish uchun ishlatiladi. Analitik fikrlash (Analytical thinking) Analitika jarayonida eng muhim qobiliyat -bu analitik fikrlashdir. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Ma'lumotlarni qismlarga ajratib, ularni yaxshilab tushunish;
- Muammolarni chuqur tahlil qilish va ularning sabablarini aniqlash;
- Muqobil yechimlarni o'ylab topish;
- Mantiqiy va tizimli fikrlashni qo'llash.

Sportda analitika sportda analitika o'yinchilar, jamoalar yoki raqiblar haqida katta hajmdagi ma'lumotlarni o'rganib, natijalarni yaxshilashga yordam beradi. Masalan o'yinchilarning jismoniy holatini monitoring qilish raqiblarning strategiyasini tahlil qilish mashg'ulotlarni optimallashtirish qarorlarni raqamli ma'lumotlar asosida qabul qilish. Analytic Methods in Sports, Thomas A. Severini[88–90-b.] **Analitika** — bu faqat ma'lumotlarni yig'ish emas, balki ularni chuqur tahlil qilib, amaliy va samarali natijalarga erishish jarayonidir. Bu soha har qanday fan va amaliy faoliyatda — biznesda, ta'limda, sportda va boshqalarda keng qo'llaniladi. Zamonaviy ilm-fanda insoniy yuksakliklarning «akme» kategoriyasi bilan bog'liq bir necha talqinlari mavjud. Jumladan, birinchi, «akme» bu qisqagina hayot kesimini qamrab olsada, ko'p qirrali holat bo'lib, insonning har doim jamiyatda qanchalik o'z o'rniga ega ekanligi, uning biror-bir soha mutaxassisi sifatida olib borayotgan salmoqli faoliyati, shaxs sifatida esa uni o'rab turganlar bilan olib borgan

ijtimoiy aloqasida qanchalik boy yoki qashshoqligi, turmush o'rtiq va ota-ona sifatida tayyorlik darajasi bilan bir qatorda yaxshi tomonga o'zgara olish darajasi va eng yashirin ezgu qobiliyatlarini ham ko'rsata olish darajasiga ham bog'liqdir. Yunonlar, insonning nimagaki qodir bo'lsa, qobiliyati va imkoniyati qirralarini ko'rsatishga xizmat qiladigan barcha yetuklik belgilari namoyon bo'lgan umrining shu qismini "akme" deb o'ylaganlar. "Akme" yunoncha ("yuksalish", "cho'qqi") kamolot, yuksalish, yetuklik ma'nolarini anglatadi. Akmeolog mutaxassislar shaxsning yuksak professionalizmi va ijodiy mahorati muammolarini oqilona yechishni muhim inson resurslaridan foydalanishda deb bilmoqdalar. Shuni ta'kidlash kerakki, akmeologiya (yun. akme-yetuklik, cho'qqi, kamolot, yuksalish, (logos-ta'limot) shaxsning kasb- hunarni egallashda yuksak cho'qqiga erishishi bilan bog'liq masalalarni o'rganuvchi "Akmeologiya" fani haqidagi dastlabki qarashlar XX asrning 20-yillarida vujudga kelgan. Shaxmat o'yinida talabalarni akmeologik yondashuv asosida talabalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, o'yinchidan puxta bilim, metodikani egallash, kreativ strategiya va o'z-o'zini takomillashtirishni doimiy ravishda amalga oshirish zarur. Shaxmat-bu yuqori darajadagi strategik va analitik fikrlashni olib yurishni talab qiluvchi sport turi. Zazykin va boshqalar "Акмеология. Учебник" kitobida ta'kidlanishicha, professional cho'qqiga erishish – bu chuqur o'rganish, ijodkorlik va o'zini boshqarishning mukammal uyg'unligi. U talabaning shaxsiy o'sishini, mustaqil fikrlashini, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Akmeologik yondashuv asosida talabalarning analitik fikrlash qobiliyatini shakllantirishning qiyosiy tahlili, ta'lim jarayonida ijodkorlik va shaxsning individual xususiyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodologiyani o'z ichiga oladi. Bu yondashuv, talabalarning potensialini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga va yangiliklar yaratishga tayyorlash maqsadida qo'llaniladi. Akmeologiya – bu insonning kuchli jihatlarini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish va shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olish bo'yicha ilmdir. Birinchi marta "akmeologiya" atamasi 1928 yilda rus psixologi Nikolay Rybnikov tomonidan ishlatilgan. Shunday qilib, bola rivojlanishini o'rganadigan pedagogikaning fanlararo yo'nalishi – pedologiyaga o'xshatib, u yetuk

odamlarning rivojlanishi haqidagi fanni chaqirishni taklif qildi. 20-asrning o'rtalarida yana bir sovet psixologi Boris Ananiyev akmeologiyaning insoniy fanlar tizimidagi o'rnini aniqladi. Akmeologik yondashuvning ta'lim jarayoni bilan uzviy bog'liqligi, shaxs kamolotini yuksaltirish va ijodkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyati haqida nazariy yondashuvlar. Akmeologiyaning predmeti individ, shaxs individual faoliyatning barcha sohalarida erishgan maksimal yetukligi bo'lmog'i lozim. Akmeologiyada odam kasbiy faoliyat va o'z hayotini o'zi belgilash, o'z-o'zini rivojlantirish va ijodkorlik qobiliyati, inson hayot faoliyatida subyekt sifatida qarab chiqiladi. B. Karimova: "Har bir taraqqiyot davrining o'ziga xos ahamiyatli tomoni bor, oxirgi yillarda akmeologiya fani paydo bo'ldiki, u aynan yetuklikka erishishning shart-sharoitlari va omillarini o'rganadi, davr nuqtai nazaridan ayni muhokama qilinayotgan yosh davrlarining xususiyatlarini o'rganadi" [5;98-b.], deb ta'kidlaydi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida ham akmeologiya va analitika muhim ahamiyat kasb etadi, ayniqsa shaxmat o'yinida chunki shaxmat fikrlashning eng yuqori darajasini talab etuvchi sport turidir. L.N.Tolstoy shunday degan edi: "Men shaxmatni kishiga yaxshi dam berishi uchun yaxshi ko'raman, shaxmat yaxshi o'ylab tahlil qilib ish ko'rishni talab etadi, kishi qanchalik aqlli bo'lsa, u shunchalik ko'p xarakterni ko'ra oladi, bu huddi shaxmatdagidek, ya'ni yaxshi shaxmatchi taxtadagi ko'p sirlarni payqay olsa, yomon o'yinchiga hamma narsa bir xildek tuyuladi" [5;19-b.], ya'ni yaxshi o'yinchi bo'lish uchun muvaffaqiyat va mag'lubiyatni tahlil qilish ya'ni analitik fikrlash zarurligini ko'rsatadi. Bu fundamental asarda faoliyat nazariyasi chuqur tahlil qilingan. Leontyevning faoliyatning rivojlanishga ta'siri, ayniqsa o'yin faoliyatining kognitiv jarayonlarni shakllantirishdagi o'rni haqidagi g'oyalari, shaxmat o'yinini analitik fikrlashni rivojlantirish uchun samarali vosita sifatida ko'rib chiqishga asos bo'ladi. Jon Nann (John Nunn) Garchi Nann akmeolog emas, balki grossmeyster va matematik bo'lsa-da, uning shaxmat bo'yicha kitoblari analitik fikrlashni bevosita o'rgatadi va shakllantiradi. Uning ishlari shaxmatda chuqur hisob-kitob qilish, kombinatsiyalarni topish va strategik qarorlar qabul qilish mexanizmlarini ochib beradi. Uning asarlari talabalarga shaxmat orqali analitik qobiliyatlarini amaliy jihatdan oshirishda yordam beradi. Bu asarda tafakkur

faoliyatining rivojlanish mexanizmlarini, ayniqsa murakkab tizimlarni tahlil qilish va modellashtirishdagi rolini chuqur o'rgangan.

XULOSA

Shaxmat o'yini aynan shunday murakkab tizimli fikrlashni talab qilganligi sababli, uning g'oyalari shaxmat orqali analitik fikrlashni rivojlantirishga bevosita taalluqlidir. Akmeologiya – bu insonning kuchli jihatlarini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish va shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olish bo'yicha ilmdir. Analitika - bu ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va ularni ma'noli natijalarga aylantirish jarayoni. U yordamida ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilinadi, muammolar yechiladi va kelajak uchun strategiyalar ishlab chiqiladi. Akmeologiya shaxmat o'yinida yuqori natija ko'rsatish uchun muhim ahamiyat kasb etishi hamda analitika qaror qabul qilish, tahlil qilish strategiyani a'lo darajada uddalay olish uchun muhim omillardan ekanligini amaliyotda o'z isbotini topdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni
2. Белоногова, Е. Н., Мельников, И. Ю., Дятлов, Д. А. Сравнительный анализ влияния различных форм двигательной активности на функциональные показатели сердечно-сосудистой системы и вегетативной регуляции у школьников младших классов [Текст] // «Теория и практика физической культуры», 2008. - № 4. - С. 7 - 11.
3. Shaxmat. M. Muhitdinov, 2017, 19- bet
4. Методологическая акмеология. Б. М. Ананьев 2002.
5. <https://kitobxon.com/oz/kitob/talim-va-tarbiya>